DOI

Isaqova Z.R.
Qo'qon DPI, katta o'qituvchi

AQLIY HUJUM METODINI QO'LLASH ASOSIDA TRENING MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya darslarini samarali tashkil etishda aqliy hujum metodini qo'llash asosida trening mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha umumiy hulosa va tavsiyalar berib o'tilgan. Aqliy hujum metodi bu talabalarni zukkolikga undovchi interfaol metodlardan biri hisoblanadi.

Tayanch so`zlar: aqliy hujum, interfaol**,** metod, pedagogik texnologiya, qo'llash, trening, mashg'ulot, innovatsion, intellektual, didaktik.

Isaakova Z.R.
Kokan DPI, senior teacher

CONDUCTING TRAINING SESSIONS BASED ON THE APPLICATION OF THE MENTAL ATTACK METHOD

Abstract. This article provides general conclusions and recommendations on conducting training sessions based on the use of the brainstorming method in the effective organization of technology lessons. The brainstorming method is one of the interactive methods that encourages students to be creative.

Key words: brainstorming, interactive, method, pedagogical technology, application, training, training, innovative, intellectual, didactic.

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni yechishda tinglovchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanilganda tinglovchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan tinglovchilarda muloqot qilish va

https://wordlyknowledge.uz

munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Tinglovchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Vazifasi. «Aqliy hujum» qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Ob'ekti. Qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli. «Aqliy hujum» ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va aqliy hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

«Aqliy hujum» metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Tinglovchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- tinglovchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- tinglovchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
-tinglovchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

«Aqliy hujum» metodining kamchilik tomonlari:

- trener-o'qituvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- trener-o'qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

«Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi:

«Aqliy hujum» metodining bosqichlari:

https://wordlyknowledge.uz

1. Tinglovchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

2. Tinglovchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Tinglovchilarning fikr-g'oyalari (magnitofonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

«Aqliy hujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

a) bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

b) bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

v) bildirilgan fikr-g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda tinglovchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim.

Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Chunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi.

Bu hamma takliflar talabaning diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi.

Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalanilsa, esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat "ma'ruza"lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25% ni eslash mumkin holos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75% ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Talabalarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza - eshitganimizning 5%.
2. O'qish - o'qiganimizning 10%.
3. Videousul, namoyish - ko'rganimizning 20%.
4. Tajribani namoyish qilish-ko'rgan va eshitganimizning 30%.
5. Bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%.
6. Mashqlar - o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%.

https://wordlyknowledge.uz

7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%.

8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish - mustaqil o'rganganimizning, tahlil va muhokama qilganimiz-ning, boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90%.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida noan'anaviy metodlar qo'llanilganda, talabalarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, tinglovchilarning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Quyida ta'lim jarayonida foydalanmoqchi bo'lgan metodlarni tanlash vaqtida hisobga olish lozim bo'lgan ayrim jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, компьyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu trener va tinglovchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi trener va tinglovchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida tinglovchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, trener esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Isakova Zukhra Rafikovna. (2022). CONDUCTING TRAININGS BASED ON THE USE OF THE "MENTAL ATTACK " METHOD. Neo Science Peer Reviewed Journal, 4, 48–50.

2. IZ Rafikovna - FORMATION OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 4. 11. 2022. 1349-1352

https://wordlyknowledge.uz

3. IZ RAFIKOVNA - THE METHODS OF DEVELOPING MODERN TECHNOLOGY SKILLS AMONG GENERAL SECONDARY SCHOOL PUPILS. Scienceweb academic papers collection, 2021

4.I.Z RAFIKOVNA - O EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION Scienceweb academic papers collection, 2021

5.Исакова З. МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (12-4) 59-63(2018).

6. IZ Rafikovna RAW MATERIALS OF SEWING MATERIALS: FIBER TYPES Open Access Repository 9 (11), 180-181(2022)

7.Abdusamatova Meyrajxon Azamat qizi Isakova Zuxra Rafikovna,Dusmatov Tugonboy Ganiyevich Texnological edukation and profissional cholice planning. Evropean internatsional journal of multidisciplinary research and management studies2022/3/31

8.Olimov Baxtiyorjon Usmanovich, Isaqova Zuxra Rafikovna, Meliboyev Rahmatjon Inomjonovich, Sotvoldiyev Elmurodjon Abdumannonovich, Tursunov Jorabek Egamberdievich, Yuldashov Barxayotjon Tashpulatovich- SELECTION OF ACTIVE TEACHING METHODS IN TECHNOLOGICAL TRAINING SESSIONS. International Journal of Early Childhood Special Education 2022/10/1

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz